DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15062126

BO‘YMODARON-(ACHILLEA MILLEFOLIUM L.) NING BOTANIK TAVSIFI VA QO‘LLANILISHI

Yursunova O‘g‘iloy Mamitali qizi
Farg‘ona Davlat Universiteti biologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya.

Abu Ali Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” kitobida bo‘ymodaronni dorivor o‘simlik sifatida turli kasalliklarga qarshi kurashish uchun qo‘llanilgani yozib o‘tilgan. Oddiy bo‘ymodaron uzoq vaqtdan beri xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatilib kelinmoqda. O‘simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama, qaynatmalar ichki a’zolardan qon ketishini to‘xtatishda qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ular ishtaha ochuvchi va ovqat hazm qilishni yaxshilash, sil kasalligi, shamollash, astmaga qarshi ishlatilib kelingan.

Kalit so‘zlar: *Bo‘yimodaron, dorivor o‘simlik, xalq tabobati, meditsina, kasalliklar, gul, meva.*

ТЫСЯЧЕЛИСТНИК-*(ACHILLEA MILLEFOLIUM L.)* БОТАНИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

Аннотация.

Абу Али ибн Сина в своей книге “Каноне врачебной науки” упоминает, что он использовал тысячелистника в качестве лекарственного растения. Обыкновенный тысячелистник издавна используется в народной медицине для лечения различных заболеваний. Отвары приготовленные из надземной части растения, применяют для остановки кровотечения из внутренних органов. Кроме того, их использовали для улучшения аппетита и пищеварения, против туберкулеза, простуды и астмы.

Ключевые слова: *Тысячелистник, лекарственное растение, народная медицина, медицина, болезни, цветок, плод.*

ACHILLEA MILLEFOLIUM-*(ACHILLEA MILLEFOLIUM L.)* BOTANICAL DESCRIPTION AND USE

Annotation.

Abu Ali ibn Sina in his book "The Canon of Medical Science" He mentions that he used yarrow as a medicinal plant. Common yarrow has long been used in folk medicine to treat various diseases. Decoctions made from the aboveground part of the plant are used to stop bleeding from internal organs. In addition, they were used to improve appetite and digestion, against tuberculosis, colds and asthma.

Key words: *Achillea millefolium, medicinal plant, folk medicine, medicine, diseases, flower, fruit.*

KIRISh.

Bo‘ymodaron-***(Achillea millefolium L.)*** murakkabguldoshlar oilasiga mansub bo‘lib, poyasi bir yoki bir necha chiziqli, bo‘yi 70—80 sm ga yetadigan ko‘p yillik o‘t o‘simlikdir. Uning bargi patsimon qirqilgan, yashil rangli, ustki tomoni tukli, ular poyachada bandsiz ketma-ket joylashgan. Poyaning uchida yassi to‘pgullar savatcha ko‘rinishida joylashgan bo‘lib, ranglari kumushsimon-oqish bo‘ladi. Mevasi - kulrang pista. O‘simlik bizning sharoitimizda iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi yozning oxiri va kuz boshlarida pishadi (1-rasm).



1-rasm. Bo‘ymodaron-***(Achillea millefolium L.)*** (info@ginosnursery.com)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo‘ymodaron respublikamizning ko‘pgina tumanlarida o‘sadi. U adir, qir, o‘tloq tog‘ yonbag‘irlari, yo‘l atroflari, bog‘larda, mayda shag‘alli qiyaliklarda uchraydi.

Bo‘ymodaron shifobaxsh bo‘lib, uning tarkibida ko‘p miqdorda vitamin C, K, karotin, fitonsidlar, efir moylari, gliko-alkaloid axillein, flavonoidlar, organik kislotalar, mikroelementlar, shuningdek oshlovchi, achchiq moddalar, efir moylari borligi aniqlangan.

Bo‘ymodaron xalq tabobatchiligida qadimdan qo‘llanilib kelinadi. U qon to‘xtatuvchi, yara bo‘lgan va jarohatlangan joylarni, oshqozon-ichak xastaliklarini, zotiljam, bosh og‘rig‘ini davolovchi, ishtaxa ochuvchi, siydik haydovchi omil sifatida ham ishlatilgan. O‘simlik gullarining kukuni asal bilan aralashtirib qabul qilinsa, gijja tushiradi. Bo‘ymodarondan buyrakdagi toshni tushirishda, nafas yo‘li shamollaganda foydalanganlar.

Abu Ali ibn Sino o‘simlikning tanasini, ayniqsa gullaridan tayyorlangan damlamalarni tarqab ketishi qiyin bo‘lgan shishlar, lat yeyish, et uzilishi, bel og‘rig‘i kabi kasalliklarning davosi sifatida hamda buyrak va qovuq toshlarini nuratuvchi omil sifatida ishlatgan.

Bo‘ymodaron gulidan kosmetika sohasida keng qo‘llaniladi. Undan tayyorlangan damlama bilan kompress qilinsa, kishi yuzidagi husnbuzar, chipqon, sizlog‘ich va boshqa toshmalarga malham bo‘ladi (V.Kulikov ma’lumotlari).
O‘simlikdan olinadigan efir moylari sanoat ko‘lamida tayyorlanadigan moyupa, xushbuy losonlar tarkibiga qo‘shiladi. Ular terini latiflashtiradi, rangini tiniqlashtiradi.

Professor A.D.Turova buyragi kasallangan kishilarga bo‘ymodarondan tayyorlangan quyidagi damlamani tavsiya etadi: 20 g miqdorida (to‘la osh qoshiq) maydalangan o‘simlik ustiga uy sharotida bo‘lgan bir stakan suv solinadi (idishlar chinni, sirlangan yodud haroratga chidamli bo‘lishi kerak) usti yopiq holda qaynash darajasiga yetkazilib, 15 minut ushlab turiladi, sovigach, dokada suziladi va bir osh qoshiqdan kuniga 3-4-marta ovqatdan keyin iste’mol qilinadi. Kishining ovqat hazm qilish a’zolarining faoliyati normal bo‘lsa, damlamaning ovqatdan oldin iste’mol etilishi maqsadga muvofiqdir. Davolanish 10 kundan keyin 3-4 kunlik dam berish bilan qaytarilishi mumkin.

Ilmiy meditsinada bo‘ymodaron o‘simligi asosida tayyorlanadigan preperatlar oshqozon-ichak xastaliklarini davolashda, ishtaha ochuvchi hamda qon to‘xtatuvdi omil sifatida ishlatiladi.

NATIJALAR VA ULARNING MUXOKAMASI

Bizning o‘lkamizda bo‘ymodaronning boshqa bir turi boshog‘riq o‘ti-(Achillea santolina L.) shifobaxshligi bilan mashhur. Mazkur o‘simlik ham ko‘p yillik bo‘lib, o‘zining ko‘rinishi jihatidan bo‘ymodarondan farq qiladi: uning bo‘yi 10—40 sm

atrofida bo‘lib, poyasi bir nechta, tik o‘suvchi o‘simlikdir. Barglari patsimon ajralgan bo‘lib, poyada ketma-ket joylashgan. Gullari sariq, savatchaga to‘plangan. Savatchalar yig‘ilib qalqonsimon to‘pgulni tashkil qiladi. Mevasi kulrang qo‘ng‘ir tusli pistacha. O‘simlik ko‘pincha tabiiy holda ariq bo‘ylarida, o‘tloq, cho‘l, saydoy yerlarda, ekinzorlar orasida, tosh tuproqli yalangliklarda uchraydi. O‘simlik iyun oyida gullaydi (2-rasm).



2-rasm. Boshog‘riq o‘ti-(Achillea santolina L.) (http://www.bium.univ-paris5.fr/sbf/activ_maroc.htm)

Boshog‘riq o‘ti xalq meditsinasida oshqozon kasalliklarini, turli qon ketishlarni, o‘pka silini davolashda ishlatiladi. Buning uchun o‘simlikning yer ustki qismidan damlama tayyorlab ichish lozim. Damlama tayyorlash uchun og‘zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv quyib, unga maydalangan o‘simlikning yer ustki qismidan bir osh qoshiq solinadi va bir soat damlab qo‘yiladi. Dokada suzilgan damlama bir qoshiq miqdorda kuniga 3-4 mahal ovqatdan oldin ichiladi. Damlamani muzlatkichda ikki kungacha saqlash mumkin.

XULOSA

Ilmiy meditsinada bo‘ymodaron preparatlari ishtaha ochuvchi, oshqozon-ichak kasalliklarida, oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yarasida, gastrit, siydik ajratuvchi yo‘llarning yallig‘lanishida tavsiya qilinadi. Shu bilan bir qatorda bu preparatlar mahalliy (burun, tish, kichik jarohat) va ichki (ichak, o‘pka, bachadon, bavosil) qon ketishida to‘xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Bo‘ymodaron ishtaha ochuvchi, qorin og‘rig‘ini qoldiruvchi dorilar birikmasi tarikibiga kiritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammadxonov C., Jonguzarov F. O‘simlikshunoslikga oid ruscha o‘zbekcha izohli lug‘at.-T.:Mehnat, 1989.-320 b.
2. И.Э. Акопов. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение.-Т.: Медицина, 1986 -567с.)
3. H.X.Xolmatov., M.H.Mahsumov. Jigar kasalliklarida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar.-T.:Ibn Sino nomidagi nashriyot birlashmasi, 1993.-30 b.
4. Nabiyev M.N. va boshqalar. Shifobaxsh ne’matlar –T.:Mehnat,1989.- 192 b.